




## 2020- yilning yanvar-dekabr oylari uchun Buxoro viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatida jami **5 387,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilga nisbatan **111,4 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



### Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2 738** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **276** taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **103,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **61,8 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **121,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,6 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **127,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **29,6 %**) o'sishidir.




**Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	2020- yil 1- yanvar holatida	2021- yil 1- yanvar holatida	
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2 462</b>	<b>2 738</b>	<b>110,8</b>
<b>Buxoro sh.</b>	<b>830</b>	<b>902</b>	<b>108,7</b>
<b>Kogon sh.</b>	<b>100</b>	<b>119</b>	<b>119,0</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Olot</b>	<b>56</b>	<b>68</b>	<b>121,4</b>
<b>Buxoro</b>	<b>196</b>	<b>227</b>	<b>115,8</b>
<b>Vobkent</b>	<b>106</b>	<b>119</b>	<b>112,3</b>
<b>G'ijduvon</b>	<b>175</b>	<b>198</b>	<b>113,1</b>
<b>Kogon</b>	<b>118</b>	<b>135</b>	<b>114,4</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>83</b>	<b>98</b>	<b>118,1</b>
<b>Qorovulbozor</b>	<b>40</b>	<b>43</b>	<b>107,5</b>
<b>Peshku</b>	<b>125</b>	<b>148</b>	<b>118,4</b>

Romitan	211	219	103,8
Jondor	203	223	109,9
Shofirkon	219	239	109,1


**Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Buxoro sh. (32,9 %), Shofirkon (8,7 %) va Buxoro (8,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1 112,1** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilga nisbatan **169,2 %** ga koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **7,0 %** punktga koʻpayib, **20,6 %** ni tashkil etdi.

### 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Qororvulbozor tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **81,6 %** i yoki 2019- yilga nisbatan **112,0 %**), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **62,1 %** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **22,1 m.**), va Kogon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **32,8 %** i, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **4,3 m.**) ga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **50,9 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning ko'rsatkichiga nisbatan **7,4 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **97,1 %** ni tashkil etgan holda **2 740,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **28,5 %** ni tashkil etdi yoki **1 534,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilga nisbatan **113,0 %** ni tashkil etdi.

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **230,8** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5 156,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,3 %** va **95,7 %** ni tashkil etdi.

## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2020- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>5 387,2</b>	<b>230,8</b>	<b>4,3</b>	<b>5 156,4</b>	<b>95,7</b>
<b>Buxoro sh.</b>	<b>1248,0</b>	<b>83,4</b>	<b>6,7</b>	<b>1164,6</b>	<b>93,3</b>
<b>Kogon sh.</b>	<b>401,8</b>	<b>18,8</b>	<b>4,7</b>	<b>383</b>	<b>95,3</b>
<i>tumanlar:</i>					
<b>Olot</b>	<b>326,0</b>	<b>14,4</b>	<b>4,4</b>	<b>311,6</b>	<b>95,6</b>
<b>Buxoro</b>	<b>459,0</b>	<b>6,7</b>	<b>1,5</b>	<b>452,3</b>	<b>98,5</b>
<b>Vobkent</b>	<b>159,0</b>	<b>5,2</b>	<b>3,3</b>	<b>153,8</b>	<b>96,7</b>
<b>G'ijduvon</b>	<b>439,1</b>	<b>12,9</b>	<b>2,9</b>	<b>426,2</b>	<b>97,1</b>
<b>Kogon</b>	<b>470,3</b>	<b>7,4</b>	<b>1,6</b>	<b>462,9</b>	<b>98,4</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>284,5</b>	<b>37,9</b>	<b>13,3</b>	<b>246,6</b>	<b>86,7</b>
<b>Qorovulbozor</b>	<b>337,1</b>	<b>8,0</b>	<b>2,4</b>	<b>329,1</b>	<b>97,6</b>
<b>Peshku</b>	<b>268,9</b>	<b>7,0</b>	<b>2,6</b>	<b>261,9</b>	<b>97,4</b>
<b>Romitan</b>	<b>379,1</b>	<b>5,3</b>	<b>1,4</b>	<b>373,8</b>	<b>98,6</b>
<b>Jondor</b>	<b>341,9</b>	<b>16,1</b>	<b>4,7</b>	<b>325,8</b>	<b>95,3</b>
<b>Shofirkon</b>	<b>272,5</b>	<b>7,7</b>	<b>2,8</b>	<b>264,8</b>	<b>97,2</b>



### Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2020- yil yanvar-dekabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **56,7 %** i yoki **3 054,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **588,3** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **19,3 %** ni tashkil etdi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 142,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **37,4 %** ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 324,0** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **43,3 %** ni tashkil etdi.

**56,7 %**

**19,3 %**

**37,4 %**

**43,3 %**




**2020- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>5 387,2</b>	<b>111,4</b>	<b>3 054,5</b>
<b>Buxoro sh.</b>	<b>1248,0</b>	<b>104,8</b>	<b>789,2</b>
<b>Kogon sh.</b>	<b>401,8</b>	<b>137,7</b>	<b>252,8</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Olot</b>	<b>326,0</b>	<b>101,9</b>	<b>152,8</b>
<b>Buxoro</b>	<b>459,0</b>	<b>110,8</b>	<b>205,1</b>
<b>Vobkent</b>	<b>159,0</b>	<b>100,7</b>	<b>101,2</b>
<b>G'ijduvon</b>	<b>439,1</b>	<b>101,9</b>	<b>280,3</b>
<b>Kogon</b>	<b>470,3</b>	<b>144,9</b>	<b>298,1</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>284,5</b>	<b>116,3</b>	<b>140,6</b>
<b>Qorovulbozor</b>	<b>337,1</b>	<b>109,4</b>	<b>92,1</b>
<b>Peshku</b>	<b>268,9</b>	<b>119,2</b>	<b>164,3</b>
<b>Romitan</b>	<b>379,1</b>	<b>100,6</b>	<b>273,1</b>
<b>Jondor</b>	<b>341,9</b>	<b>114,9</b>	<b>158,8</b>
<b>Shofirkon</b>	<b>272,5</b>	<b>107,4</b>	<b>146,1</b>

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **8,8 %** ni tashkil etib, 2019-yilning ko'rsatkichiga nisbatan **4,3 %** ga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yildagi ko'rsatkichiga nisbatan **6,4 %** punktga kamayib, **46,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilga nisbatan **2,1 %** punktga ko'payib, **44,7 %** ni tashkil etdi.

*ulushi, % da*




## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **30,6 %** ni tashkil etdi va 2019- yilga nisbatan **7,3 %** punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **69,4 %** (2019- yilga nisbatan **7,3 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.

*ulushi, % da*

Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



2019- yil




2020- yil  
yanvar-dekabr



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilga nisbatan **12,7 %** punktga ko'paydi va **53,3 %** ni tashkil etdi. Qolgan **46,7 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilga nisbatan **12,7 %** punktga kamaydi.

ulushi, % da





**2020- yil yanvar-dekabr oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari**


*mlrd. so'm*

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>5 387,2</b>	<b>3 436,0</b>	<b>1 024,4</b>	<b>926,8</b>
<b>Buxoro sh.</b>	<b>1 248,0</b>	<b>826,6</b>	<b>254,1</b>	<b>167,3</b>
<b>Kogon sh.</b>	<b>401,8</b>	<b>141,2</b>	<b>161,8</b>	<b>98,8</b>
<i>tumanlar</i>				
<b>Olot</b>	<b>326,0</b>	<b>237,1</b>	<b>17,9</b>	<b>71,0</b>
<b>Buxoro</b>	<b>459,0</b>	<b>318,9</b>	<b>53,3</b>	<b>86,8</b>
<b>Vobkent</b>	<b>159,0</b>	<b>115,7</b>	<b>16,8</b>	<b>26,5</b>
<b>G'ijduvon</b>	<b>439,1</b>	<b>334,1</b>	<b>66,4</b>	<b>38,6</b>
<b>Kogon</b>	<b>470,3</b>	<b>233,9</b>	<b>103,3</b>	<b>133,1</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>284,5</b>	<b>186,8</b>	<b>66,7</b>	<b>31,0</b>
<b>Qorovulbozor</b>	<b>337,1</b>	<b>108,9</b>	<b>68,4</b>	<b>159,8</b>
<b>Peshku</b>	<b>268,9</b>	<b>199,8</b>	<b>50,2</b>	<b>18,9</b>
<b>Romitan</b>	<b>379,1</b>	<b>295,5</b>	<b>58,8</b>	<b>24,8</b>
<b>Jondor</b>	<b>341,9</b>	<b>269,0</b>	<b>46,5</b>	<b>26,4</b>
<b>Shofirkon</b>	<b>272,5</b>	<b>168,5</b>	<b>60,2</b>	<b>43,8</b>




## Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Jondor tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **78,7 %** i yoki **269,0** mlrd. so'm), shuningdek, Romitan tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **78,0 %** i yoki **295,5** mlrd. so'm), G'ijduvon tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **76,1 %** i yoki **334,1** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.




## Fuqarolik obyektlari qurilishi, jamiga nisbati, % da

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Kogon shahriga (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **40,3 %** i yoki **161,8** mlrd. so'm), Qorako'l tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **23,4 %** i yoki **66,7** mlrd. so'm), Shofirkon tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan **22,1 %** yoki **60,2** mlrd. so'm) da qayd etildi.




## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Qorovulbozor tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **47,4 %** i yoki **159,8** mlrd. so'm), Kogon tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **28,3 %** i yoki **133,1** mlrd. so'm), Kogon shahri (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **24,6 %** i yoki **98,8** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Buxoro sh. (1 248,0 mlrd. so'm), Kogon sh. (470,3 mlrd. so'm), Buxoro (459,0 mlrd. so'm), G'ijduvon (439,1 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Tel.: (65) 223-81-99**

